

TA'LIM TIZIMIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA IJOBIY NATIJALARI

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
Maxsus fan o'qituvchisi
Askarova Fotima Araboy qizi

Annotatsiya: *Ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga berilayotgan imkoniyatlar va ijobiy natijalari xaqida ma'lumotlar keltrilgan.*

Kalit so'zlar: *I va II guruh nogironlar, tibbiy mehnat ekspert komissiyalari, imkoniyati cheklangan o'quvchilar, ta'lim, masofaviy ta'lim.*

Hozirgi kunda Respublikamizda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun shart-sharoitlar juda xam yaxshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki imkoniyati cheklangan o'quvchilar toifasi qarab maxsus maktablar, kasb-hunar maktablari mavjud. Respublikamizda imkoniyati cheklangan o'quvchilarimiz uchun 2 ta kasb-hunar maktablari mavjud. Bu kasb-hunar maktablari Toshkent, Farg'onada mavjuddir. Demak Respublikamizda 2 ta kasb-hunar maktab borligini hisobga olib, ushbu ta'lim muassasalariga ko'p viloyatlardan kelgan kelgan o'quvchilar bilan birgalikda yoshlarimiz uchun yangi muhitga adaptatsiya bo'lishlari, jamiyatga mustaqil qo'shilishlariga zamin bo'lmoqda. Kasb-hunar maktablarida mutaxassislik bo'yicha kasb olishlaridan tashqari, oliy ta'limga kirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarga oliy ta'lim tizimiga kirishga 2% kvotalarni berilishi buning yorqin misolidir.

Bunda yoshlarimiz davlatimiz tomonidan berilgan oliy ta'limga kirishlarida 2% kvotlaridan foydalanishlari lozim. To'g'ri ushbu imkoniyatlardan barcha imkoniyati cheklangan o'quvchilar foydalana olmaydi, chunki davlat tomonidan berilgan standart ballarni olishlari tavsiya qilinadi.

Ehtimol, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishni istaganlar ko'pchilikni tashkil etar, ammo ularning hammasi ham kirish imtihonlarida kerakli ballar sonini to'play olmaganlar, bu ularning imtihonlarga tayyorlanish darajalari past ekanligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nogironligi bor shaxslarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilish tartibiga ko'ra, o'rta ta'lim (11-sinf asosida), akademik litsey yoki kasb-hunar maktabini bitirganlik haqidagi hujjatga ega bo'lish yetarli. Amalda esa, shahodatnoma yoki diplom mavjudligi har doim ham yuqori darajadagi bilim va o'rta ta'lim sifatini kafolatlamaydi.

Shubhasiz, kuchli raqobat sharoitida, nogironligi bor shaxslarga 2% miqdorda kvotalar, oliy ta'lim olish jarayonida tengsizlikni bartaraf etish maqsadida kiritilgan. Biroq, nogironlik oliy ta'limga qabul jarayonida ijobiy diskriminatsiya uchun asos bo'lib xizmat qila oladimi? Nogironligi bo'lgan abituriyentlar uchun o'tish balining sezilarli darajada pasaytirilgani, ularning bevosita tayyorgarligi sust ekanligini anglatadi, bu esa ularning qolgan abituriyentlar bilan teng ravishda raqobatlashishiga to'sqinlik qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday imtiyozlar inson tanasining nuqsonlari uning aqliy qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga ishora qiladi. Aslida esa, jismoniy nogironlik, eshitish va ko'rish qobiliyatining cheklanishi

yoki aqliy zaiflik, sifatli o'rta ta'lim olish va oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun zarur tayyorgarlikni ta'minlash uchun to'siq bo'la olmaydi.

Bu jarayonlarda o'quvchi-yoshlardan ozgin bilim tavsiya qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, oliy ta'limga kirmagan o'quvchilarimiz o'z bilimlariga tayanib, kasb-hunar maktablarida, Raqamli texnologiya markazi, IT-Park o'quv markazlari va rezedentlarida ta'lim olgan yoshlarimiz mustaqil frilanser bo'lib, o'zalarini band qilmoqda. Mustaqil o'rganishni xoxlagan yoshlarimiz hozirgi kunda davlatimiz tomonidan tashkil qilgan uzbekcoders.uz, xanakademiyasi.uz platformalarida zamonaviy IT-bilimlarni va xorijiy tillarni bepul o'rganmoqdalar. Undan tashqari masofaviy ta'lim kurslarda qatnashmoqdalar.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun masofaviy ta'lim muhim bir imkoniyatdir. Bu, o'quvchilarga o'z uyida o'rganish imkonini beradi va o'quv jarayonida o'zlarining tempini va o'zlashtirishni boshqarishlariga imkon beradi. Bu tizimda o'quvchilar, onlayn darslar, video darslar, interaktiv vazifalar va kompyuter dasturlari yordamida o'zlarini o'rganishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning o'zlarining o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va o'zlashtirishlari uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

O'quvchilar uchun onlayn ma'lumotlar bazalari, masofaviy ta'limning asosiy qismlaridan biridir. Bu bazalar, elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, darsliklar, maqolalar va boshqa dasturlar orqali o'quvchilarga keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etish imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan mavzularni o'rganishlari va rivojlantirishlari uchun ilmiy rivojlanishlarini oshirishadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun interaktiv ta'lim vositalari o'rganish jarayonida o'zlariga yordam berishi mumkin. Virtual laboratoriyalar, interaktiv darsliklar, o'quv o'yinlari va interaktiv testlar o'quvchilarga qiziqarli va amaliyotiy ta'lim tajribasi yaratishda yordam beradi. Bu vositalar o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish, o'rganishni qiziqarli va interaktiv qilish, o'quv jarayonida ko'nikmalarini joriy qilish va ma'lumotlarni yodlashlarini oshirishadi.

Masofaviy ta'lim tizimi, imkoniyati cheklangan o'quvchilarga kompyuterlar, smartfonlar, internet va onlayn platformalar orqali o'qituvchilar, mentorlar va boshqa o'quvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning savollarini yuborish, fikrlarini bayon qilish, fikrlar almashish va bir-birlariga yordam berishlari uchun platformalar, forumlar va onlayn jamoalar orqali aloqada bo'lishlari mumkin. Bu qo'llanma o'quvchilarning ijodiyliklarini rivojlantirish, o'rganish jarayonida yordam olish va o'zlashtirishlari uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Masofaviy ta'lim tizimi o'quvchilarga tayyorlov kurslarini va sertifikatlarini olish imkonini beradi. Bu kurslar, kompyuter dasturlash, veb-dizayn, ma'lumotlar bazasi boshqaruvi, mahsulotni sotish va boshqa sohalarda tayyorlanishga yordam beradi. Sertifikatlar, o'quvchilarning o'zlarining mutaxassislikbilimlarini tasdiqlash va ishga joylashishda ularning aniq va haqiqiy ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu, o'quvchilarga ishga kirish imkonini oshiradi va ularning ish bozoridagi raqobatga qarshi muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga berilayotgan imkoniyatlar va ijobiy natijalar, ularning o'zlashtirishlarini oshirish, o'rganishlarini oshirish va rivojlanishlarini rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu imkoniyatlar, o'quvchilarning o'zlarini shaxsiy va

professional sohada rivojlantirishlari uchun keng ko‘lamli va raqobatbardosh bo‘lishlari uchun muhimdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020- yilda 13- oktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 2020- yil 14 - oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko‘ra 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, 1-bosqichda (2020-2023-yillar) inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o‘quv qurollari bilan maktablarni ta’minlash nazarda tutilgan. 2- bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etish, bu bo‘yicha chora- tadbirlarni amalga oshirish kabilar.

Inklyuziv ta’lim - bu maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta’lim muassasalarida ta’lim olish imkoniyatini teng ravishda ta’minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta’lim olish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich ayrim maktablarda sinov tariqasida yo‘lga qo‘yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik Respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbir etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarni kasb-hunarga

Keyingi o‘quv yilidan boshlab alohida ta’limga ehtiyojmand bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi knazarda tutilgan. utilmoqda. Lekin bu ta’lim tizimi hali O‘zbekistonlik imkoniyati cheklangan bolalar, ularning ota-onalari hamda ustozlari uchun yangi muhit, yangi bosqich bo‘lgani uchun ham xavotirlar mavjud. Imkoniyati cheklangan har bir bolaning ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanish alohida e’tibor talab etadi.

Bu ta’lim tizimini joriy etish uchun avvalo jamiyatni, maktabdagi sog‘lom bolalarni ham, imkoniyati cheklangan bolalarni ham bunga moslashtirish kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan bola nogironlik nima ekanligi, bunday bolalarning ustidan kulmaslik kerakligini bilishmaydi. Shuning uchun ham ular inklyuziv ta’lim davomida nogironligi bo‘lgan tengdoshining ustidan kulishi, masxara qilishi, uni ajratib qo‘yishi, kamsitishi kabi kuzatilsa, bu albatta nogironligi bo‘lgan bolaning ruhiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom bolalar orasida o‘zini kamsitilganday his etish bola uchun doimiy ruhiy zo‘riqish ostida yashashga sababchi bo‘ladi. Maxsus maktab-internatlar, kasb-hunar maktablarda esa nogironlik jihatidan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan bola ta’lim va tartiya olishi jarayonida atrofidagi tengdoshari ham o‘ziga o‘xshashligi, u kabi kasallik bilan og‘rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar kuzatilmaydi va u o‘zlarini atrofdagilardan zaif va kuchsizday his etishmaydi. Faqat yoshlarimiz yaxshi bilimlarga ega bo‘lishlari uchun ustoz-shogird an’anasini muntazam qo‘llash lozimdir.

Aziz yoshlar vaqtingizni bexuda o‘tkazmay, IT-bilimlarini va zamonaviy tillarni o‘rganib, kelajakda yaxshi frilanser bo‘lib yetishlaringa tilakdoshman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://review.uz/uz/post/O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "O'zbekiston Oliy Majlisi va xalqiga"](https://review.uz/uz/post/O'zbekiston-Respublikasi-Prezidenti-SH.Mirziyoyevning-O'zbekiston-Oliy-Majlisi-va-xalqiga) murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/imkoniyati-cheklangan-bolalar-maktablarida-ta-lim-jarayonini-tashkil-etish>
3. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific Impulse, 2(16), 320-325.
4. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
5. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
7. <https://www.google.com/intl/ru/slides/about/>
8. Hamidullo o'g'li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI. Scientific Impulse, 1(7), 648-653.
9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). SHAXSIY KOMPYUTER BILAN O'ZARO ALOQADA BO'LGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING ISH JOYI VA O'RNI. Scientific Impulse, 1(11), 394-398.
10. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
11. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). TA'LIM TIZIMIGA MICROSOFT OFFICE 2003 VA 2020 DASTURLARINI QO'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI. Scientific Impulse, 2(13), 353-357.
12. Odilzhanovich, T. K., Makhmudovna, N. M., & Odilzhanovich, I. A. (2021). The selection of the control parameter of the raw cotton electric sorter. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(11), 1-5.
13. Odilzhanovich, T. K., Odilzhanovich, I. A., & Makhmudovna, N. M. (2021). Analysis of FLUFF in the Process of Lintering of Seeds. Central Asian journal of theoretical & applied sciences, 2(11), 26-28.
14. Ma, W., Yan, B., & Sun, L. (2022). Generative adversarial network-based short sequence machine translation from chinese to english. Scientific Programming, 2022.
15. Nabiyev, K. K., Yakubov, N. J., & Niyazaliyeva, M. M. (2019). Tikuvchilik buyumlarini tikishda ipning ishonchliligini oshirish usullari. Ilm-fan va ta'lim byulleteni, (20-3 (74)), 14-16.
16. Niyazaliyeva, M. M., Dadajonov, Sh.D., Oxunbabayev, O. A., & Oxunbabayev, U. O. (2022). JONLI PILLADAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH, QAYTA OZIQLANTIRISH

- USULI BO‘YICHA JONLI COCOONS GROWN-DAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH. Professor ve Zotikov tavalludining 135 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konfessiya yakunlari bo'yicha ilmiy ishlar to'plami:(2022 yil 25 may). 2-qism.M.: RGU nomli Kosygina, 2022 yil.171 s., 91.
- 17.Makhmudovna, N. M., & Dadajonovich, D. S. (2023). An Innovative Method of Storing Live Cocoons and its Impact on the Quality and Technological Indicators of Live Cocoons. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 12-17.
- 18.Makhmudovna, N. M., Muhammadkarim, M., & Oxunjonovich, A. U. (2021). IMPROVEMENT OF THE RECYCLINGPROCESS OF COCOONS RECEIVED FROM THE REPEAT FEEDING. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(12).
19. Toshbekov, O. A., Urozov, M. K., Baymurova, N. R., & Hamrayeva, M. F. (2022). Processes of bleaching and discolouring of wool fibers. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 231-235.
20. Rahimovna, B. N. (2023). DUAL TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. PEDAGOG, 6(12), 11-14. 21.Mukumova, F., & Baymurova, N. (2023). TEACHING STUDENTS THE ART OF EMBROIDERY AND ARTISTIC WEAVING IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(12), 64-67.
- 22.Rakhimovna, B. N., & Kudratovna, M. N. (2022). CREATION OF METHODS OF MAKING NATIONAL JEWELRY IN SURKHANDARYA COSTUME. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13.
23. Rakhimovna, B. N. (2024). INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE OF THE DUAL EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF LIGHT INDUSTRY EDUCATION. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(02), 336-341.
24. Baymurova N. R., & Toxirova A. Sh. (2022). ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA YANGI TEXNOLOGIK JARAYONLARDAN FOYDALANISH ORQALI MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH. Iqtisodiyot va jamiyat, (10-1 (101)), 264-267.
- 25.Amanturdiyevna, R. D., Xudoyqulovna, M. F., Salimovna, D. Y., Akmalovich, K. S., & Nuritdinovich, C. N. (2022). METHODOLOGY OF FORMING ENGINEERING COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACH (IN THE EXAMPLE OF THE EDUCATIONAL DIRECTION OF CONSTRUCTION AND TECHNOLOGY OF LIGHT INDUSTRIAL PRODUCTS (SEWING PRODUCTS). Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3898-3901.
26. Dilafruz, R. (2023, March). BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 11-14).
27. Dilafruz, R. (2024). PECULIARITIES OF DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL EDUCATION. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(01), 139-142.

28. Amanturdiyevna, R. D. Z. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI. PEDAGOG, 6(12), 7-10.

29. Amanturdiyevna, R. D. (2022). Innovative Approaches and Their Future Muhmainly the Importance of Andi Ready. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 1(9), 1-4.

30. Radjapova, D. A. (2022). Professional activity and development stages of engineers in the world education system.

31. Radjapova, D. A., Raximkulova, S. A., Boltayeva, I. B., & Urozov, M. K. (2021). Study of Modern Technologies of Sewing Manufacturing. International Journal on Orange Technologies, 3(11), 85-86.

32. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). SOHADA MICROSOFT OFFICE WORD 2003 VA 2021 DASTURLARI QO'LLANILISHI VA AFZALLIKLARI. Scientific Impulse, 1(11), 376-382.